



UDK:811.512

*Nargiza AYTNIYAZOVA,*  
*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: nargiza.farxatovna@gmail.com*

*Alfraganus universiteti professori, DSc M.Saparniyazova taqrizi asosida*

## FUNCTIONAL AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS IN THE UZBEKISTAN AND KARAKALPAK LANGUAGES

Annotation

This article examines the functional and pragmatic features of food-related proverbs in the Uzbek and Karakalpak languages. The study focuses on the role of gastronomic vocabulary in paremiological units, their semantic load, and their functions in real communication. The comparative analysis reveals how cultural symbols such as bread, food, and taste are used in both languages to express social values, ethical norms, and traditional worldview. The findings demonstrate that these proverbs play an essential role in preserving cultural memory and maintaining social regulation within the speech community.

**Keywords:** proverb, food vocabulary, pragmatics, linguoculturology, semantics, gastronomic concept.

## ФУНКЦИОНАЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ В УЗБЕКИСТАНСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проведён функционально-прагматический анализ пословиц, связанных с пищей, в узбекском и каракалпакском языках. В исследовании раскрываются особенности гастрономической лексики в составе паремиологических единиц, их семантическая нагрузка и функции в реальном речевом общении. Сравнительный анализ показал различия и сходства в использовании образов хлеба, пищи, вкуса и других бытовых символов, а также их роль в формировании культурных и нравственных ценностей. Результаты исследования подтверждают значимость таких пословиц в сохранении культурной памяти и регулировании социального поведения.

**Ключевые слова:** пословица, пищевая лексика, прагматика, лингвокультурология, семантика, гастрономический концепт.

## O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI MAQOLLARNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi oziq-ovqatga oid maqollarning funksional-pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida gastronomik leksikaning paremiologik birliklarda tutgan o‘rni, ularning semantik yuklamasi hamda real nutq jarayonidagi vazifalari yoritildi. Qiyosiy tahlil orqali ikki xalq madaniyatida non, osh, qozon, ta‘m, tuz kabi timsollarning qanday baholovchi va tarbiyaviy mazmun bilan qo‘llanilishi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari ushbu maqollar xalqning madaniy xotirasini saqlash, ijtimoiy me‘yorlarni mustahkamlash va kommunikativ jarayonda tarbiyaviy funksiyani bajarishda muhim rol o‘ynashini tasdiqladi.

**Kalit so‘zlar:** maqol, oziq-ovqat leksikasi, pragmatika, lingvokulturologiya, semantika, gastronomik konsept.

**Kirish.** Til – nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning milliy ruhini, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiruvchi, madaniy xotirasini saqlovchi ijtimoiy hodisadir. Xalq og‘zaki ijodining yadro qismini tashkil etuvchi maqollar esa asrlar davomida shakllangan hayotiy tajriba, urf-odatlar, mehnat faoliyati, axloqiy me‘yorlar va madaniy qadriyatlarni ixcham hamda obrazli shaklda ifodalovchi nutqiy birliklardir [1]. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining umumiy etnik ildizlari, diniy e‘tiqodlari va maishiy hayoti ularning paremiologik fondida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda qo‘llaniladigan maqollarda jamiyat tafakkuri, individ va jamiyat munosabatlari, milliy mentalitetning o‘ziga xos jihatlari mujassamdir [2]. Ushbu maqollarning funksional-pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish ularning real kommunikativ jarayondagi maqsadga yo‘naltirilgan ta‘sir kuchi – o‘git berish, baholash, ogohlantirish, motivatsiya va ijtimoiy nazorat vositasi sifatida tutgan o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, oziq-ovqat (gastronomiya)ga oid maqollar xalqning kundalik hayoti, taomlashuv madaniyati, mehr-oqibat,

mehnatsevarlik, saxiylik, halollik kabi milliy qadriyatlarini metaforik obrazlarda aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. Bunday maqollarda oziq-ovqat nomlari semantik yukni belgilovchi asosiy komponent bo‘lib, nutqning ta‘sirchanligi, emotsionalligi va ekspressivligini kuchaytiradi. Shuningdek, ular inson fazilatlarini baholash, ijtimoiy tartib va me‘yorlarni mustahkamlash vositasi sifatida ham qo‘llanadi [3].

Garchi o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari paremiologiyasida mushtaraklik kuchli bo‘lsa-da, oziq-ovqatga oid maqollarning qo‘llanish konteksti, semantik tarmoqlanishi hamda pragmatik vazifalarida ayrim milliy xususiyatlar mavjud. Shu bois, ushbu maqollarni qiyosiy funksional-pragmatik tahlil qilish turkiy tillarning lingvokulturologik tafovut va umumiyliklarini ilmiy asosda ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tilida maqollarning turli xarakterdagi to‘plamlari (N.Otsoumov, B.Rahmonov, Sh.Jo‘rayev, H.Zarifov, B.Karimov, Sh.Rizayev, O‘.Azimov, M.Afzalov, R.Jumaniyozov, O‘.Xolmatov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, E.Siddiqov, I.Haqqulov,

B.Sarimsoqov M.Madrahimova, Sh.Shomaqsudov, T.Mirzayev va boshqalar) chop etilgan bo'lib, bu to'plamlar o'zbek tilidagi ko'plab maqollarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, P.Bakirov, M.Temirova, B.Jo'rayeva, D.Turdaliyeva, X.Abduraxmatov, M.Sharipova kabi olimlar tomonidan maqollar turli aspektlarda o'rganilgan. Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning "Hikmatnoma", "Ma'nolar xazinasi" kitoblaridan o'zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlarining ifodalanishi va K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" kabi manbalarda o'zbek xalq maqollarining nazariy asoslari keltirib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi oziq-ovqatga oid maqollarning funksional-pragmatik xususiyatlarini o'rganish maqsadida bir qator lingvistik metodlar uyg'unlashtirildi. Avvalo, paremiologik materiallar korpus modeli asosida shakllantirildi. Buning uchun o'zbek va qoraqalpoq maqollarini qamrab olgan lug'atlar, xalq og'zaki ijodi to'plamlari, elektron ma'lumotlar bazasi hamda internet resurslar manba sifatida tanlab olindi [4]. Tanlangan materiallar faqat oziq-ovqat leksikasi ishtirok etgan maqollar bilan chegaralandi va ularning nutqiy ahamiyatini belgilovchi kontekstual xususiyatlar inobatga olindi. Keyingi bosqichda olingan materiallar funksional-semantik tahlil asosida tartibga solindi. Bu jarayonda oziq-ovqat komponentlarining semantik yuk tashish darajasi, ularning ramziy timsol sifatidagi roli va milliy madaniyatga oid ma'no qatlamlari aniqlab berildi. Metaforik mazmun, emotsional-ekspressivlik darajasi hamda baholovchanlik funksiyasi alohida kuzatildi [5]. Tadqiqotning nazariy asosini pragmatik yondashuv tashkil etdi. Xususan, maqollarning kommunikativ jarayondagi maqsadga yo'naltirilgan nutqiy vazifalari — o'git berish, ogohlantirish, ta'na qilish, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy nazorat kabi illokutiv kuchlari Graysning kooperativ tamoyillari hamda nutq aktlari nazariyasi asosida tahlil qilindi [6]. Bu esa paremiologik birliklarning real nutqda pragmatik kuch bilan ishlash mexanizmini chuqurroq ochib berdi. Shuningdek, o'zbek va qoraqalpoq maqollarining lingvokulturologik qiyosiy tahlili olib borildi. Har ikki xalqning tarixiy-madaniy umumiyliklari va o'ziga xos tafakkur unsurlari maqollar misolida solishtirildi. Bir xil struktura va mazmunga ega bo'lgan paremiologik birliklar aniqlanib, ularning milliy dunyoqarashni aks ettirishdagi o'zni izohlandi. Tadqiqot

natijasida korpus asosida jamlangan gastronomik mazmundagi maqollarning funksional-pragmatik talqini ilmiy jihatdan asoslandi, o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining madaniy tafakkuri, ijtimoiy qadriyatlarini hamda hayot falsafasi maqollar orqali keng ko'lamda qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gastronomik mazmunga ega o'zbek va qoraqalpoq maqollarida oziq-ovqat tasavvurlari xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati, ma'naviy qadriyatlarini va milliy dunyoqarashini ifodalovchi asosiy konseptlardan biri sifatida shakllangan. "Non/nan", "osh/as", "qozon/qazan", "tuz", "ta'm/maza" kabi birliklar ma'naviy baraka, halollik, saxiylik va ijtimoiy birdamlik tamoyillarini obrazli tarzda ifodalaydi, bu esa gastronomik tasavvurlarning xalq tafakkuridagi semantik o'rnini ko'rsatadi. Oziq-ovqat atamallari bilan bog'liq maqollarda mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas'uliyat kabi axloqiy fazilatlar doimo markazda turadi. Pishirish jarayoni mehnat jarayoni sifatida qaraladi va insonning halol mehnati baraka bilan uyg'unlashtiriladi. Taomning toti mehnatda ekanini anglatuvchi mazmunlar kishini har doim mehnatga undaydi, hayotga ijobiy yondashuv shakllantiradi. Bu esa mazkur maqollar pragmatikasining asosiy kuchidir — ya'ni nutq orqali axloqiy me'yorlarni mustahkamlash va xatti-harakatni boshqarish [8].

Gastronomik metaforalar ko'pincha baholash vositasi sifatida ishlaydi: shirin ta'm — yaxshi xulq, achchiqlik — yomon fe'lning ramziga aylanadi. Odamning jamiyatga mo'ljallangan yoki nomos xulq-atvori oziq-ovqat timsollari orqali qisqa, lo'nda va ta'sirchan tarzda baholanadi. Shuning uchun bu tur maqollar real muloqotda tez va samarali ta'sir etadi: o'git berish, ogohlantirish, tanbeh, maqtov, qo'llab-quvvatlash kabi funksiyalarni bajaradi [9].

O'zbek va qoraqalpoq maqollaridagi mushtarakliklar bilan birga ayrim lingvokulturologik farqlar ham kuzatildi. O'zbek xalqida "non" eng yuksak qadriyat timsoli bo'lib, halollik va rizq barakasi bilan bevosita uyg'unlashgan. Qoraqalpoq madaniyatida esa "qozon", "osh", "mehmondo'stlik" markaziy o'rin tutadi. Ya'ni o'zbek maqollarida rizqni asrashga urg'u kuchli bo'lsa, qoraqalpoq maqollarida uni ulashish va mehmonni rozi qilish tamoyillari ko'proq ilgari suriladi [7], [10].

Quyidagi jadval ushbu farqlarni umumlashtiradi:

1-jadval

O'zbek va qoraqalpoq maqollarida gastronomik timsollarning funksional talqini

Asosiy timsol	O'zbek maqollarida talqin	Qoraqalpoq maqollarida talqin	Izoh
Non / Nan	Baraka, rizq, halol mehnat samarasi	Bor bo'lsa ulashish bo'lgan rizq	O'zbeklarda saqlash, qoraqalpoqlarda ulashish g'oyasi ustun
Osh / As	Dasturxonning to'kinligi, mehnat mevasi	Mehmondo'stlikning timsoli	Ovqat — jamiyatni birlashtiruvchi kuch
Qozon	Uy-ro'zg'or tashvishi, mehnat belgisi	Jamoat birdamligi va qo'ni-qo'shnicilik ramzi	"Qozon qaynashi" ijtimoiy yaqinlik haqida
Tuz	Qadr, do'stlik, halollikning ramzi	Sadoqat va odamiylik belgisi	Tuzning qadri har ikki tilda kuchli
Ta'm	Axloqiy baholash mezon	Axloqiy va ijtimoiy fazilatlar o'lchovi	Shirin — yaxshi, achchiq — salbiy

Bundan tashqari, maqollar nutqda qo'llanilganda kontekstga qarab o'z pragmatik vazifasini o'zgartirishi aniqlangan: mehmon kutish paytida — iliqlik va hurmat belgisi, tarbiyaviy vaziyatda — ogohlantirish yoki nasihat, mehnat jarayonida — rag'batlantirish roliga chiqadi. Bu polifunksionallik maqollarning ijtimoiy hayotda doimo faol ishlatilishini ta'minlaydi va ularni avlodlararo tajriba almashinuvida muhim vositaga aylantiradi [8], [9].

Gastronomik mazmundagi maqollar xalqning jamiyat haqidagi tasavvurlari, tarixiy tajribasi va madaniy xotirasini aks

ettiradi. Ular nutqda axborot tejamliligini, ma'no zichligi va kuchli emotsional ta'sirga ega bo'lib, kommunikativ vaziyatda ijtimoiy tartibotni qo'llab-quvvatlash, odob me'yorlarini eslatish va birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [10].

Gastronomik mazmunga ega o'zbek va qoraqalpoq maqollarining funksional-pragmatik qatlamlarini tahlil qilish jarayonida, avvalo, oziq-ovqat nomlari atrofida shakllangan konseptual maydon ikki xalqning ijtimoiy tajribasi va axloqiy me'yorlari bilan bevosita chirmashib ketganini ko'rsatadi. "Non/nan", "osh/as", "qozon", "tuz", "ta'm" singari timsollar

nafaqat maishiy reallikni tasvirlaydi, balki ijtimoiy birdamlik, saxovat, halollik, tejamkorlik, mehmondo'stlik kabi qadriyatlarini normativ darajada mustahkamlaydi. Maqollar shu qadriyatlarini bir zumda esga solish, vaziyatga mos xulqni shartli tarzda "faollashtirish" vositasiga aylanadi: qisqa shakl — kuchli illokutiv ta'sir. Bu jihat, an'ana va odatlar kechayotgan zamonaviy diskurslarga singib, turli ijtimoiy kontekstlarda qayta va qayta aktualizatsiya bo'lishi bilan izohlanadi [11]. Maqollar mazmunida pishirish jarayoni va dasturxon madaniyatining freymlari ayniqsa markaziy: "qozon qaynashi", "ovqat ulashish", "nonning qadri" singari skriptlar mehnat–natija, saxovat–baraka, poklik–halollik kabi qarashlarni metaforik tarzda bog'lab beradi. Bu yerda metaforaning roli oddiy badiiy bezak emas, balki kognitiv tahlilga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi "qisqa kod" sifatida namoyon bo'ladi: "shirin–achchiq" oppozitsiyasi axloqiy baholashni tezlashtirsa, "non/baraka" juftligi mehnat va rizq o'rtasidagi sababiy bog'lanishni odat, e'tiqod va tajriba bilan legitimlashtiradi. Shuning uchun gastronomik metaforalar muloqotda ko'pincha maslahat, ogohlantirish, dalda yoki tanbeh vazifalarini bajarib, munosabatlar muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Bu holat lingvopragmatika doirasida maqollarning "ijtimoiy nazorat" vositasi sifatida ishlashini tasdiqlaydi: nutqiy ta'sir shaxsning obro'sini saqlash, munosib javob berish, muvofiqlikni ta'minlash kabi yuz-nazariya elementlari bilan uzviy bog'lanadi [12].

Qiyosiy ko'rinishda, o'zbek tilidagi "non" paradigmasi ko'proq preskriptiv kuchga ega bo'lib, "saqlash–asrash–baraka" uchligida shaxsiy javobgarlikni markazga olib chiqadi. Qoraqalpoq tilida esa "as/qazan/qonaq" uchligida ijtimoiy ulashish, qo'ni–qo'shnichilik va jamoviy birdamlik kuchliroq tovlanadi. Bunda har ikkisi ham bir-birini inkor etmaydi: birida rizqni asrash orqali baraka konsepti mustahkamlanar ekan, ikkinchisida aynan ulashish barakani kengaytiruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, mushtarak semantik yadroni turlicha pragmatik yo'naltirish — mintaqaviy madaniy amaliyot, turmush sharoiti va marosim ssenariylaridagi farqlar bilan izohlanadi. Muhimi, ikkala yondashuv ham ijtimoiy ishonchni oshiradi: biri resursni tutib turish va mas'uliyatni ta'kidlash, ikkinchisi ulashish orqali ishonch tarmog'ini kengaytiradi. Bu ikki modelning ham maqsadi o'zgaruvchan sharoitda jamiyatning ichki muvozanatini saqlashdir [11], [12]. Maqollar matnida emotsional-ekspressivlik ham alohida o'rin tutadi. "Ta'm" semantikasi — shirin, achchiq, sho'r, pishiq — axloqiy baholashning nozik tonlarini yetkazadi va auditoriyaning intuitiv qabulini tezlashtiradi. Zero, "shirin gap" yoki "achchiq haqiqat" kabi so'zlashuvdagi so'nmas qoliplar ayni shu mexanizmga tayanadi: ta'm sezgisi orqali ijtimoiy xatti-harakatga baho berish, jazolash yoki rag'batlantirish. Bunda ifodaning ixchamligi va obrazlilik darajasi yuqori bo'lgani sayin, illokutiv kuch ham ortadi. Ana shu "kognitiv tejamkorlik" maqollarni kundalik muloqotdan tortib, marosimiy nutq hamda ta'limiy kontekstgacha qulay "ishga tushadigan" vositaga aylantiradi. Tarjima va didaktik implikasiyalari ham e'tiborga loyiq. Maqollardagi madaniy o'zak juda zich: "non/nan" — nafaqat ovqat, balki baraka, himoya, duoning qabul bo'lishi, halollik timsoli. Demakki, so'zma-so'z tarjima ko'pincha illokutiv kuchni kamaytiradi. Shu bois tarjimada funksional ekvivalent tamoyili muhim: maqsad — aynan qanday xatti-harakatga undash, qay tarzda ogohlantirish yoki qo'llab-quvvatlash niyati ekanini saqlab qolish. Masalan, notanish auditoriyaga "non — baraka" qatori izoh bilan berilishi mumkin; aks holda, u faqat "bread" sifatida anglanib, normativ ma'no yo'qoladi. Ta'limda esa maqollarni

kontekstli mashqlar — rolli o'yinlar, dialogga joylash, "proverb-to-context" moslash — orqali qo'llash pragmatik sezgirlikni oshiradi: talabalar nafaqat ma'no, balki vaziyatga mos nutqiy harakatni ham o'zlashtiradi [11]. Muhokamaning yana bir muhim qismi — maqollarning polifunksionalligi. Bir matn turli vaziyatda turlicha ishlashi, masalan, mehnat oldida iliqlik ko'rsatkichi, tarbiyaviy suhbatda ogohlantirish, mehnat jarayonida rag'bat bo'lishi mumkin. Bu ko'p qirralilik maqollarni tiriklikdagi o'zgarishlarga moslashtiradi: ular yangilanayotgan ijtimoiy media tiliga ham kirib boradi, tushunarli hashtaglar, qisqa sarlavhalar, vizual memlarga uyqashib, zamonaviy xotirada qayta formatlanadi. Biroq mazmuniy yadrosi — halollik, saxovat, mehnat qadri, tejamkorlik — o'zgarmaydi. Demak, maqollar nafaqat folklor "yodgorligi", balki ijtimoiy semantikaning hozirgi ko'rinishlarida ham faol ishlayotgan koddir [12].

Umuman olganda, gastronomik konseptlar asosidagi maqollar ikki xalq madaniy xotirasini, ijtimoiy me'yorlarini va etnik muvozanatini saqlashda hamon faol. Ular bilan bog'langan metafora va freymlar — "mehnat–pishirish", "birlilik–dasturxon", "halollik–tuz", "baraka–non" — muloqotda nafaqat mazmun yetkazadi, balki xulqni boshqaruvchi yashirin mexanizm sifatida ham ishlaydi. Shuning uchun bunday maqollarni o'rganish faqat folklorshunoslik chegarasida qolmay, kommunikatsiya, tarjimashunoslik, ta'lim metodikasi va madaniyatshunoslik kesishmalarida ham amaliy natija beradi: ularning qisqa, ammo mazmuni zich shakli bugungi tezkor kommunikatsiya sharoitida ham ijtimoiy uyg'unlikni saqlashga xizmat qiladigan kuchli pragmatik resurs bo'lib qoladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi oziq-ovqatga oid maqollar semantik va pragmatik jihatdan xalq dunyoqarashining muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ovqat, non, qozon, ta'm kabi gastronomik konseptlar xalqning iqtisodiy hayoti, mehnat faoliyati, axloqiy qadriyatlarini va diniy e'tiqodlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Har ikkala xalq paremiologiyasida rizqni e'zozlash, halollikni ustun qo'yish, saxiylik va mehmondo'stlikni sharaflash kabi qadriyatlar markaziy nutqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Maqollarning semantik-pragmatik tahlili asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: • Oziq-ovqatga oid maqollar xalq ma'naviy merosi va qadriyatlar kodini avlodlar davomida uzluksiz yetkazib beruvchi nutqiy-madaniy fenomen hisoblanadi. • Mazkur maqollar til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkam tasdiqlaydi, chunki undagi obrazlar xalqning hayot tarzini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi. • O'zbek va qoraqalpoq maqollarining semantik markazi o'xshash bo'lsa-da, ularning pragmatik yo'nalishida ayrim milliy tafovutlar mavjud: biri rizqni asrashni, boshqasi uni ulashishni ustun qo'yadi.

• Ular nutqiy jarayonda tarbiyaviy, ogohlantiruvchi, baholovchi va ijtimoiy nazorat funksiyalarini bajaradi, kommunikatsiyada axloqiy me'yorlarni faol ravishda qo'llab-quvvatlaydi. • Gastronomik metaforalar nutqning emotsional-ekspressiv kuchini oshiradi, qisqa shaklda kuchli illokutiv ta'sirni ta'minlaydi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u gastronomik konseptlarning lingvopragmatik tabiatini chuqur yoritish orqali paremiologik birliklar orqali muammolarni ijtimoiy diskursda qanday tartibga solishning mexanizmlarini tushuntiradi.

Umuman olganda, oziq-ovqatga oid maqollar ikki xalq axloqiy e'tiqodining o'zagi, jamiyat hayotidagi muvozanatni saqlab turuvchi, madaniy xotirani avlodlarga yetkazuvchi va muloqotning samarali pragmatik vositasi bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Насретдинов А. Паремии в системе языковой картины мира. — Ташкент: Fan, 2019. — 145 б.

2. Қадыров Б. Ўзбек ва қарақалпоқ мақолларининг киёсий тадқиқи. — Нукус: Қарақалпоқ университети нашрийоти, 2021. — 128 б.
3. Ахмедова Д. Ўзбек мақолларининг прагматик хусусиятлари // О‘zbek tili va adabiyoti. — 2020. — №4. — Б. 56–63.
4. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Hikmatnoma: O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. — 2-nashr.
5. Abd Al Khanaifsawy A. N. A Pragmatic Study of Proverbs: Sociocultural Perspective // (maqola, PDF). — 2023. — 15 b.
6. Grice H. P. Logic and Conversation // Cole P., Morgan J. L. (tahr.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. — New York: Academic Press, 1975. — B. 41–58.
7. Мирзаев Т., Мусақулов А., Саримсоқов Б. О‘zbek xalq maqollari. — Toshkent: “Sharq”, 2016. — 512 b.
8. Qoraqalpoq maqollari (87 ta) // Ziyoz.uz — xalq og‘zaki ijodi to‘plami (veb-nashr). — 2017.
9. Xolmurodova M. D. Ikromjonovna. Lingvo-kognitiv va lingvokulturologik jihatdan maqol va matallar // Anglisticum Journal (IJLLIS). — 2017/2021
10. Krogo A., et al. Ethno-Pragmatic Implications of Food and Consumption-Related Proverbs in Nzema (preprint) — 2024.
11. Собирова М. О‘zbek maqollarida madaniy-konnotativ ma‘no talqini // O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy xabarlari. — 2022. — №5. — B. 142–149.
12. Yeskeyeva M. Qoraqalpoq xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. — 2023. — T. 4, №2. — B. 311–318.